

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR

**Kurbonova Yulduz Djumaevna**

Termiz davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrası o‘qituvchisi.

[ykurbanova1961@gmail.com](mailto:ykurbanova1961@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maktabgacha yosh davrida bolalar har tomonlama tez rivojlanib boradilar. Bu davrda bolalar jismoniy o‘sh tez ko‘zga tashlanadi, yani bo‘yi o‘sadi, og‘irligi ortib boradi. Shu bilan bir vaqtda bolalar psixologik jihatdan rivojlanadi, jumladan diqqat ixtiyoriylik kasb eta boshlaydi, xotira va tafakkur shakllanadi. Ushbu davrda bolalarda hamma narsani bilishga intilish xususiyati tufayli tafakkur tez rivojlana boradi.

Maqolada bolalarda tafakkurning jadal rivojlanishi sabablari haqida ma’lumot berildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirishda tarbiyachi va otanalarning nimalarga e’tibor qaratishlari haqida tavsiyalar berildi.

**Kalit so‘zlar:** psixologik rivojlanish, qiziquvchanlik, sayohatlar uyshtirish, didaktik o‘yinlar, rivojlantiruvchi metodikalar.

Bolalar maktabgacha yosh davrida har tomonlama rivojlanadi, jumladan, jismoniy o‘sh bilan bir vaqtda psixologik jihatdan ham rivojlana boradi. Bolalarda mustaqil va erkin harakatlanish uning nutqiy rivojlanishiga turki boladi, bu davrda bolalar diqqati va xotirasi ixtiyorsiz ko‘rinishdan ixtiyoriy tusga o‘tib boradi. Shuningdek, maktabgacha yosh davrida bolalarda tafakkur juda tez rivojlana boshlaydi. Bolalarda tafakkurning jadal rivojlanishining sabablari shundaki, ularda turmush tajribasi ortib borishi, maktabgacha yosh davrida bolalar nutqi yaxshi rivojlanganligi, uchinchidan esa, bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlaridir.

Tafakkur ijtimoiy hayot sharoitida shakllanadi, u bolalarda keng predmetli faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Tafakkur qilish – operativ jarayon hisoblanadi. Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiyashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. insonda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo‘ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to‘g‘risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Taqqoslash – shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o‘rtasida o‘xshashlikni yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik borligini, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi.

Analiz – narsani (buyumlarni, hodisalarni, jarayonni) tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo‘lish demakdir. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga uning elementlariga bo‘lgan munosabati aniqlanadi. Biror moddiy narsani uning moddiy elementlariga ajratib bo‘lish eng oddiy shakldagi analizdir. Stolni ayrim qismlarga bo‘lish – uning oyoqlarini, yashiklarini va boshqa shu kabilarni bir-biridan ajratib olish mumkin.

Sintez – analizning aksi yoki teskarisi bo‘lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon obyektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir butun qilib qo‘shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa, yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar, yoki qismlar tariqasida olingan buyum yoki hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo‘lgan munosabati aniqlanadi. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo‘shishdan iboratdir, amaliy analiz bo‘lgani singari, sintez ham amaliy bo‘lishi mumkin. Chunonchi, mashinaning ayrim detallari bir-biriga tegishli tarzda birlashtirilganda, ya’ni ular sintez qilinganda, yaxlit, butun mashina, masalan, odimlovchi ekskavator hosil bo‘ladi.

Abstraksiya–shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunda tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha obyektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obyekt yoki obyektlardan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda obyektidan ajratilgan bir belgining o‘zi tafakkurning mustaqil obyekti bo‘lib qoladi. Abstraksiya, odatda, analiz jarayonida yoki analiz natijasida sodir bo‘ladi. Tafakkur inson bilish faoliyatining oliy shakli sifatida atrof-olamni umumlashtirgan xolda biror vosita orqali aks ettirish imkonini beradi, predmetlar bilan hodisalar o‘rtasida aloqa va munosabatlarni tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda turli sohaga oid savollarning tug‘ilishi ularning tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qizi-quvchanlik so‘na boshlaydi.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan hayron qolish, taajjublanish va natijada turli savollarning tug‘ilishi tufayli paydo bo‘ladi. Ko‘pgina ota-onalar va tarbiyachilar bolalar ko‘proq savol beraversalar, «buncha mahmadona bo‘lma», «sen bunday gaplarni qayerdan, kimdan o‘rganasan», deb koyib beradilar. Kattalarning bunday munosabatda bo‘lishlari natijasida bola boshqa savollar bermaslika urinadi, hamma narsani o‘z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortin-choq bolalar esa ichidan bilib olishni istasada hech qanday savol bermaslikka inti-ladilar. Bunday bolalarga turli mashguloglarda va sayohat-lar vaqtida kattalar tomo-nidan savollar

berib ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deyi-ladi. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayo-nini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayo-hatlar jarayonida ko'p narsalarni ko'radilar va ko'rganlarini bir-biri bilan taqqoslash-ga urinadilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar.

Nutq tafakkurning asosiy quroli hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bolalar nutqining rivojlanishi ham o'ziga hos xususiyatga ega. 2 yoshda bolaning so'z boy-ligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yoshli bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yoshda uning so'z zahirasi 4000 taga etadi. Demak, maktabgacha yosh davrida bolaning nutqi miqdor va sifat jihatidan ancha takomillashadi, bu davrda bolalar nutqining o'sishi maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mashg'ulotlarni samarali tashkil etilshi bilan birga oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalar ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini mumkin.

Maktabgacha yosh davri-psixik rivojlanishning intensiv bosqichi hi-soblanadi. Shu yoshda bolada juda katta sifat o'zgarishlari ro'y beradi, ya'ni psixofiziologik funksiyalar takomillashadi, murakkab shaxsiy yangi obrazlarning paydo bo'lish jarayonlari sodir bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qiziqishning ustunligi yangi obrazlarni xayoliy hodisalarni analiz qilish xususiyati rivojlanib borishiga olib keladi, ammo natijalar hamisha ijobiy bo'lavermaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini tahlil qilish natijasida bolalar predmetlarni tasavvur qilibgina qolmay, ularning o'zaro bog'liqligini ham xayolan tasavvur qilishi aniqlangan.

Tasavvurning rivojlanishi, tafakkurning shakllanayotgan jarayoni bilan tavsiflanadi, bu shakllanish bolaning xayoliy tasavvurlarining ixtiyoriy ko'rsat-kichlari bilan bog'liqdir. Bunday imkoniyat maktabgacha katta yoshli bolalarda yanada koproq namoyon bo'ladi, chunki, bu yoshda bola yangi aqliy harakat usullarini juda tez o'zlashtirib oladi. Aqliy faoliyatda yangi usullarning shakllanib borishi, tashqi predmetlarning harakatini o'zlashtirib olishdagi bola harakati, ta'im-tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalarning obrazli tafakkurini rivojlanishi uchun eng maqbul imkoniyat davridir.

4-5 yoshli bolalarda ko'nikma va malakalarning rivojlanishi hamda shakllanishida intensivlik ko'zga tashlanadi, bu esa tashqi muhitni o'rganishga zamin yaratadi. Aql rivojlanishidagi bunday ko'rsatkich, ko'rgazmali harakat tafakkur-ga «tayyorgarlik davri» hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida bolani tashqi va uni o'rab turgan atrof-muhitni o'rganish jarayonida faktlarga asoslangan xolda tasavvur va tushunchaga ega bo'la olishiga ko'mak beradi.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turi, tafakkurning yangi turlarini shakllanishiga, ya'ni ko'rgazmali-obrazli tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday jarayon shu bilan ta'riflanadiki, bola muammoli vaziyatlarning echimini tasavvurlar shaklida qabul qilgan holda amaliy harakatlarni qo'llamaydi. Maktabgacha tarbiya yoshining so'ngida ko'rgazmali -obrazli tafakkurning eng yuqori formasi ko'rgazmali-sxematik tafakkurning rivojlanishi ko'zga tashlanadi.

Ko'rgazmali-sxematik tafakkur tashqi muhitni o'zlashtirib olish uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi, ya'ni har xil predmetlarni va hodisalarni umumlashtirishning modeli uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari

tafakkurning ko'rgazmali-sxematik formasi, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy negizi hamdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, 5-7 yoshli bolalar muammoli vaziyatlarni echimini topishda masalaga tafakkurning uch xil formasi bilan yondashar ekan. Bular:

- ko'rgazmali - harakat tafakkur;
- ko'rgazmali - obrazli tafakkur;
- mantiqiy tafakkur.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda asosan obrazli so'z mantiqli va ko'rgazmali-harakatli tafakkur turi rivojlangan bo'ladi. So'z mantiq tafakkur turi esa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda endi rivojlanish davrida bo'ladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intellektini diagnostika qilish uchun, birinchi navbatda obrazli so'z mantiqli va ko'rgazmali-harakat tafakkur turlariga e'tibor qaratish kerak.

Biz bayon qilayotgan psixodiagnostik metodikalar tafakkurning aynan mana shu ikki turiga taalluqlidir.

Obrazli - so'z-mantiq tafakkur ham, ko'rgazmali-harakat tafakkur ham o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar har xil topshiriqlar echi-mini izlash bosqichlarida namoyon bo'ladi. Mana shu bog'lanishlar va munosa-batlar tufayli bolalardagi obrazli- so'z-mantiq va ko'rgazmali-harakat tafakkurni rivojlanishini diagnostika qilish uchun bolalar bilan turli rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar, mozaikalar, turli so'z oyinlari ( " Hikoyani davom ettir", "yangi so'zlar hosil qilish", "Gapni davom ettir" kabi) "Mantiqsiz tasvirlar" metodikasi, "Yil fasllari" metodikasi, "Rasmda nima ortiqcha" kabi "Konturlarni birlashtirish» metodikasi, "Labirintdan chiqish, yo'lini top» metodikalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Z.T.Nishonova, G.K.Alimova Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.
2. E.G‘oziev. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy - eksperimental tahlil T.Noshir 2010.
3. Sh.A.Do‘stmuhamedova, Z.T.Nishonova va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: Fan va texnologiyalar 2013.
4. Ю.Курбонова. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишида ўйиннинг роли. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM APRIL 2023 COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS Washington, USA 2023. 90-93 б.